

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
YDK: 336:371 (575.1)

Baxodirov Olimjon Odil o‘g‘li

**Mavzu: Ta’lim sohasi xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishni
takomillashtirish masalalari**

70410401 — “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: i.f.b.f.d., dots. Bauyetdinov M

Toshkent – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi
kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

“ Moliya ”

30 -sonli bayonnoma “ 27 ” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri

Xudoyqulov.X.X.




imzo

sana

Ilmiy rahbar:

Bauyetdinov.M.J




imzo

sana

Talaba:

Bahodirov.O.O



imzo

sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “ 30 ” may

No MBF-01/29 raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojining hamma jabhalarini, shu jumladan, ta’lim tizimini isloh qilish sari odimlamoqda. Chunki, chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, birinchi navbatda, kadrlar potentsialiga, ularning kasb jihatidan tayyorgarligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa butun ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Kelajak avlodning puxta bilim olishini ta’minlash, ularni nafaqat shaxsiy hayotida, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lishlari ta’minlaydi va bu masalaga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Mamlakat uchun davlatdagi ta’lim tizimining qay holatda ekanligi va kelajakda qanday kadrlar tayyorlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim tizimini isloh qilmasdan, uni yoshlarning qobiliyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirmasdan, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmasdan, sohaga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanmasdan erishib bo‘lmaydi. Shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni ushbu sohaga yo‘naltiriladigan moliyaviy resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta’mirlesh, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish hamda umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish masalalari davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investorlar, ta’lim, xalq ta’limi, budjet, budjetdan tashqari jamg‘armalar.

ABSTRACT

After achieving its independence, the Republic of Uzbekistan is moving towards reforming all aspects of social, economic and cultural development of society, including the education system. Because the implementation of deep reforms, the transition to a market economy, will depend, first of all, on the potential of personnel and their professional training. This requires a fundamental reform of the entire education system. Ensuring thorough education of the future generation will ensure that they have their place not only in their personal life, but also in the socio-economic life of the country, and attention is being paid to this issue as one of the priority areas of state policy. For the country, the state of the education system in the state and what kind of personnel will be trained in the future are of great importance. Therefore, without reforming the education system, without directing it to bring out the abilities of young people, without meeting their social needs, the financial resources intended for the sector cannot be achieved without effective use. Also, the process of modernization of the educational system, which is considered a component of the socio-economic life of our country, requires more effective use of financial resources directed to this field. Today, special attention is being paid to the further improvement of the education system and the increase of quality education services. In particular, targeted measures are taken to strengthen the material and technical base of educational institutions by building, reconstructing and overhauling them, equipping them with modern educational and laboratory equipment, computer equipment and teaching-methodical manuals. The issues of vision and the fundamental improvement of the quality of general secondary education have been raised at the level of state policy.

Key words: investment, foreign investors, education, public education, budget, extra-budget funds.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
KIRISH.....	10
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	13
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	14
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	14
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	14
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1.Kirish.....	16
2.2.Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	18
2.3 Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
II BOB. METODOLOGIYA.....	28
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	29
3.3 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	29
3.4 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	29
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	30
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	30
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	31
4.1. Ta‘lim tizimini moliyalashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalar.....	31
4.2. Xalq ta‘limi xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish amaliyotining tahlili.....	38

4.3. Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan ta‘lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari	51
XULOSA	59
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	59
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	60
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	64

KIRISH

1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Davlat budjeti milliy moliya tizimining yetakchi bo'g'ini sifatida davlat tomonidan keng ko'lamdagi ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning moliyaviy manbai bo'lib xizmat qilishi bilan birga, mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim moliyaviy manbai hisoblanadi. Ayniqsa iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish kabi vazifalarning kun tartibiga dolzarb masala sifatida maydonga chiqarilishi o'z navbatida davlat moliyasining markaziy bo'g'ini hisoblangan davlat budjetining daromad va xarajatlarini samarali boshqarish tizimini shakllantirishni taqozo qiladi. Chunki, davlat budjetining daromadlarini shakllantirish tizimida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi soliqlar vositasida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rag'batlantirish imkoniyatlariga ega bo'linsa, ikkinchidan, davla budjeti xarajatlari tizimi orqali kuchli ijtimoiy siyosani amalga oshirishning moliyaviy asoslarini shakllantirilishi bilan birga, markazlashtirilgan fondlar moliyaviy resurslari hisobiga yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini davlat hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'linmoqda.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"da belgilangan iqtisodiyotni liberallashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq keng ko'lamli islohotlarning hozirgi sharoitida budjet